



Doç. Dr. Esra Nur Tiriya  
anısına

ifwt

Institut für die Welt der Türken

# VII. ULUSLARARASI TÜRKLERİN DÜNYASI SOSYAL BİLİMLER SEMPOZYUMU

INTERNATIONAL WORLD OF TURKS SYMPOSIUM OF SOCIAL SCIENCE

2-4 Haziran June 2023 | Prag-ÇEKYA  
Prague-CZECHIA



# BİLDİRİ KİTABI

EDİTÖR: DR. RAMAZAN ERYILMAZ

**VII. ULUSLARARASI TÜRKLERİN  
DÜNYASI SOSYAL BİLİMLER  
SEMPOZYUMU**

**VII. INTERNATIONAL WORLD OF  
TURKS SYMPOSIUM OF SOCIAL  
SCIENCES**

**BİLDİRİ KİTABI**

**PROCEEDINGS BOOK**

**02-04 Haziran/June 2023 Prag-ÇEKYA**

**Editör**

**Dr. Ramazan ERYILMAZ**

**VII. ULUSLARARASI TRKLERİN DNYASI  
SOSYAL BİLİMLER SEMPOZYUMU  
BİLDİRİ KİTABI**

**VII. INTERNATIONAL WORLD OF TURKS  
SYMPOSIUM OF SOCIAL SCIENCES  
PROCEEDINGS BOOK**

**Editr / Editor**

**Dr. Ramazan ERYILMAZ**

**Kapak Tasarımı / Cover Design**

**Yavuz Selim KARAHAN**

Bu kitap, 2-4 Haziran 2023 tarihinde Trklerin Dnyası Enstits tarafından dzenlenen VII. Uluslararası Trklerin Dnyası Sosyal Bilimler Sempozyumunda sunulan bildirilerin tam metinlerini kapsamaktadır. Tm bildirilerin hukuki ve etik sorumluluęu yazarlarına aittir.

**ISBN: 978-625-00-8481-6**

**Ankara-2023**

	<i>Umida RASULOVA</i>	
TOĞAY MUROD USLUBI .....		756
	<i>Ülker XELİLLİ</i>	
AZƏRBAYCAN DİLİNİN FRAZEOLUJİ VAHİDLƏRİNDƏ “İNSANIN EMOSİONAL VƏZİYYƏTİ: KƏDƏR / QƏM / QÜSSƏ” .....		763
	<i>Ünal KALAYCI</i>	
TÜRKÇEYE GERİ ÖDÜNÇLEMELER ÜZERİNE.....		763
	<i>Webi Achmad RİVALDİ; Nero Mika HASAKİ; Idul Fitri Kuengsi SİRAlT; Yohanes Ferdinand PELEALU; PATRÍCÍA</i>	
LEGAL CONSEQUENCES OF FAILURE TO IMPLEMENT PEACE PROPOSAL IN SUSPENSION OF DEBT PAYMENT OBLIGATIONS .....		778
	<i>Yimmy OCTAVÍAN; Robbin MATHESTA; Lawrence AVERÍNO; Magistrate TORANG; Dian Aprilia RYETANTY; Natalis Nibenama ZEGA</i>	
JURIDICAL REVIEW OF LAW NUMBER 8 OF 1999 CONCERNING CONSUMER PROTECTION AGAINST CONSUMERS OF GOODS DELIVERY SERVICES .....		781
	<i>Zarifa O'RİNOVA</i>	
PRESEDENT NOMLARNING ONOMASTİK METAFORA SIFATIDAGI VAZIFASI .....		789
	<i>Zarnigor DAVRONOVA</i>	
XX. ASR BOSHLARIDA QO'LLANILGAN ANTROPONIMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....		797
	<i>Zarrina MUZAFFAROVA</i>	
ADABIY JANRLARDA TIL BIRLIKLARINING İFODALANISHI (ERKIN VOHİDOV SHE'RIYATI MISOLIDA).....		804
	<i>Zehrahanım RAHİMOVA</i>	
QIPÇAQ TÜRK DİLLƏRİNDƏ İSMİN HAL KATEQORİYASI .....		813
	<i>Zeynep EKİNCİ</i>	
TÜRKÇEYİ YABANCI DİL OLARAK ÖĞRENEN RUS ÖĞRENCİLERİN TÜRKÇEYE YÖNELİK GÖRÜŞLERİ: ALANYA ALAADDİN KEYKUBAT ÜNİVERSİTESİ ÖRNEĞİ.....		819
	<i>Zilola TO'QSANOVA</i>	
TARIXIY ASARLARDAGI ASTRONOMİYAGA OİD MA'LUMOTLAR (AHMAD DONISH MEROSI MISOLIDA).....		819
	<i>Акбар САБИРДИНОВ</i>	
ШУХРАТ ШЕЪРИЯТИДА ЛИРИК ҚАХРАМОН.....		826
	<i>Гулноза ОРИПОВА</i>	
ЛИРИК АСАР КОМПОЗИЦИЯСИ .....		827
	<i>Бауыржан САЙФУЛЛАЕВ; Айдана МЕДЕНОВА</i>	
ЗАХИРИДДИН МҲАММЕД БАБЫР: ҚОЛБАСШЫ, САЯСАТКЕР, АҚЫН .....		840
	<i>Бауыржан САЙФУЛЛАЕВ</i>	
КӨРКЕМ ШЫҒАРМА ТІЛІНДЕГІ ДИАЛЕКТИЗМДЕР (М.ОМАРОВ ПЕН Қ.СЕЙДАНОВ ШЫҒАРМАЛАРЫ МЫСАЛЫНДА).....		844

## PRESEDENT NOMLARNING ONOMASTIK METAFORA SIFATIDAGI VAZIFASI

### THE FUNCTION OF PRECEDENT NOUNS AS ONOMASTIC METAPHORS

Zarifa O'RINOVA

*Uzman, Ali Şîr Nevaî Adını Taşıyan Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi, Özbekistan*

*zarifaorinova@gmail.com*

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada pretsedent nomlarning lisoniy shaxs egasiga tanish mashhur nom sifatida qayd etilganligi bois bu hodisa badiiy va lirik matnda allyuziv nom, onomastik metafora va o'xshatish etaloni singari lingvopoetik vazifalarni bajarish imkoniyatiga egaligiga to'xtalib o'tilgan. Tadqiqotda pretsedent nomlarning lingvopoetik vazifalaridan onomastik metafora tahlilga tortildi. Pretsedentlikning an'anaviy metafora nazariyasida qo'llanishi tilshunoslikda "onomastik metafora" atamasi bilan yuritiladi va bunda metafora sifatida qo'llanilgan kishi nomlari nazarda tutiladi. Maqolada Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Omon Matjon va Muhammad Yusuf she'riyatida uchragan pretsedent nomlarning onomastik metafora vazifasida kelgan holatlari tahlilga tortildi. Tadqiqotimiz natijasida onomastik metaforani yuzaga keltiruvchi nom, albatta, pretsedentlik xususiyatiga ya'ni mashhurlikka ega bo'lishi lozimligi, agar nom pretsedentlik xususiyatiga ega bo'lmasa, uni ramziy ma'noda qo'llash yetarli samara bermasligiga amin bo'ldik. Masalan, o'zbek she'riyatida ko'p uchraydigan To'maris pretsedent nomi jasurlik, Hotam pretsedent nomi saxiylik, Jaloliddin Manguberdi pretsedent nomi vatanparvarlik, Alpomish pretsedent nomi qahramonlik, shuningdek, Qur'on pretsedent nomi muqaddaslik ramzi sifatida qo'llangaligiga guvoh bo'lganmiz. Sababi bu nomlar xalqimiz orasida xuddi shunday sifatleri bilan ma'lum va mashhurdir. She'riyatda qo'llangan pretsedent nom onomastik metafora vazifasida kelgan bo'lsa, bunda shu nomning atoqli otlik belgisi kamayib, u bildirgan ramziy ma'no munosabati bilan turdosh otga yaqinlashishini, lirik matnda bu pretsedent nomning ramziy ma'nosi shoir tomonidan asosiy ma'no tashuvchi, she'rning umumiy mazmuni va salohiyatini ochib beruvchi kalit sifatida ishlatilishining guvohi bo'ldik.

**Kalit so'zlar:** pretsedent nom, atoqli ot, onomasik metafora, allyuziv nom, she'riyat, lingvopoetika, metafora, ramziy ma'no.

#### **Abstract**

Since this article records precedent names as a popular name familiar to the owner of a linguistic personality, this phenomenon is touched upon in the artistic and lyrical text that it has the potential to perform linguistic tasks such as the allusive name, onomastic metaphor and the benchmark of analogy. In this small research work, the onomastic metaphor from the linguopoetic tasks of prepositional names was subjected to analysis. The use of precedence in traditional metaphor theory is referred to in linguistics by the term "onomastic metaphor" and refers to the names of the person used as a metaphor. The article drew on analysis of the cases in which precedent nouns found in the poetry of Rauf Parfi, Shavkat Rahman, Omon Matjan and Muhammad Yusuf came in an onomastic metaphor function. As a result of our research, we were convinced that the name that gives rise to the onomastic metaphor must necessarily have the property of precedence i.e., popularity, and that if the name does not have the property of precedence, its use in symbolic terms would not have sufficient effect. For example, we have witnessed the use of the name Toomaris precedent, which is common in Uzbek poetry, of courage, Hotham precedent name of generosity, Jaloliddin Manguberdi precedent name of patriotism, Alpomish

precedent name of heroism, as well as the name Quran precedent as a symbol of holiness. The reason is that these names are known and popular among our people with similar qualities. When the precedent name used in poetry came in the function of an onomastic metaphor, we witnessed that the proverb diminishes and approaches the related noun in connection with the symbolism it expresses, since in the lyrical text the symbolism of this precedent name is used by the poet as a key carrier of fundamental meaning, revealing the general content and potential of the poem.

**Keywords:** Precedent name, proverbial horse, onomastic metaphor, allusive name, poetry, linguopoetics, metaphor, symbolism.

### **Kirish**

Precedent nomlarning lingvopoetik vazifalaridan ikkinchisi sifatida onomastik metafora qayd etiladi. Ma'lumki, precedentslikning doimiy ko'pma'nolilik nazariyasida ifodalanishi ko'proq rus tilshunos olimlarining tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Bu nazariya asosida doimiy metaforik va metonimik qo'llaniladigan, ma'no jihatidan o'zaro yaqin, bir so'z turkumiga mansub bo'lgan ikkilamchi nominatsiya qilinadigan precedents otlar tadqiq qilinadi. Mazkur tadqiqotlarda aniqlanishicha, barcha tillarda ko'p ma'nolilikning nisbatan doimiy modellari mavjud va bu modelga binoan biror kishining sifatlarini ifodalashda shu sifatleri bilan mashhur bo'lgan boshqa bir kishining ismi qo'llanishi mumkin. Masalan, "Hoy yigit, qani bir hotamtoylik qiling-chi!" "Bunchalik Otello bo'lish yigit kishiga yarashmaydi".

Precedentslikning an'anaviy metafora nazariyasida qo'llanishi tilshunoslikda "onomastik metafora" atamasi bilan yuritiladi va bunda metafora sifatida qo'llanilgan kishi nomlari nazarda tutiladi. Masalan, Fransiyadagi xalq frontining lideri A Le Pen metaforik tarzda Fransiyaning qutqaruvchisi zamonaviy Janna D'Ark sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, o'zbek adabiyotida sevimli shoirimiz

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar precedents ismlar (intertekstemalar, onomastik metaforalar, tarixiy va badiiy metaforalar, atoqli otlarning ko'chma ma'noda qo'llanishi) hozirgi zamon badiiy matnida, shuningdek, ommaviy muloqot jarayonida faol qo'llanishidan dalolat beradi. Tilshunos D.Andaniyozova bu borada shunday deydi: "Onomastik birliklar ham badiiy matnda metaforik ma'noda qo'llanishi mumkin. Metaforaning bu til birliklari bilan namoyon bo'lishi onomastik metafora deb yuritiladi va u muayyan onomastik birlikni nom bo'lmagan boshqa so'z ma'nosida qo'llashga asoslanadi, ya'ni tushuncha va nom (masalan, saxovatli odam ma'nosini Hotam antroponimi orqali ifodalash) o'rtasidagi o'xshashlikka tayanadi".<sup>16</sup> Biz ham tilshunos olimaning fikriga qo'shilamiz va quyidagi misolni keltiramiz:

Ko'ksida armonning tumorday dog'i,

deydilar gulilar yurti – Hirotda

Zuhrosiz ravzada turmagan Tohir,

Layli va Majnunlar faqat kitobda.<sup>17</sup>

Ushbu misralar Shavkat Rahmonning "Yonayotganlar" she'ridan olingan bo'lib, "Guli", "Layli va Majnun" precedents nomlari onomastik metaforani shakllantirgan bo'lsa, "Hirotda", "Tohir va Zuhra" precedents nomlari allyuziv nom sifatida qo'llangan. Baytda qo'llangan "Guli" nomi haqida har bir o'zbek kitobxonini tasavvurga egadir. Bilamizki, Alisher Navoiy haqidagi afsonalarda uning Guli ismli sevgilisi borligi aytiladi. Amir Majdididdin Navoiyning sevgilisi Gulini sulton haramiga olib kiradi. Guli

<sup>16</sup> Andaniyozova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. -Toshkent: Turon zamin ziyo. 2016.-54-bet.

<sup>17</sup> Rahmon Sh. Abadiyat oralab. Toshkent: Movorounnahr- 2012. 54-bet

esa bunga doş berolmay zahar ichib o‘z joniga qasd qiladi. Bu ma‘lumotlar asosida shoir o‘z she‘rida Gulini vafo, sadoqat, sevgi ma‘nosini ifodalash uchun qo‘llagan. Baytdagi “Layli va Majnun” pretsedent nomi esa “haqiqiy, sof muhabbat” mazmumini ifodalab onomastik metaforani vujudga keltirgan.

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, pretsedent nomlar muayyan til egasi bo‘lgan xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatları, mentaliteti bilan uzviy aloqador bo‘lib, ularni namoyon etuvchi birlikdir. Badiiy adabiyotda bu mashhur nomlarni qo‘llash turli poetik vazifalarni bajarishi mumkin. Bu hodisani o‘rganish, pretsedent nomlarning poetik vazifalarini aniqlash borasida o‘zbek tilshunosligida tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot institutida olib borilgan tadqiqotlar natijasida “O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati” tilshunos olimalarimiz Durdon Xudoyberganova va Dilrabo Andaniyozovalar tomonidan tuzildi. Ushbu lug‘atning asosiy maqsadi nomlarning badiiy matnda namoyon bo‘luvchi lingvopoetik vazifasini tavsiflashdir. Ushbu lug‘at o‘zbek tilshunosligida shunday turdagi lug‘atning birinchisi hisoblanadi. Shu sababli, bu lug‘atda o‘zbek badiiy adabiyotida qo‘llangan barcha onomastik birliklar emas, ular orasida eng faollari kiritilgan. Ushbu lug‘atda yuqorida Shavkat Rahmonning “Yonayotganlar” she‘ridan olingan parchadagi onomastik metaforani ifodalagan “Layli va Majnun” pretsedent nomi ham kiritilgan. Bu lug‘atda “Layli va Majnun” nomi o‘zbek she‘riyatida uch xil vazifada, allyuziv nom, o‘xshatish etaloni, onomastik metaforani yuzaga keltirishining izohi berilgan. Onomastik metafora vazifasida kelish holatiga shunday ta‘rif berilgan:

“Layli va Majnun nomlari badiiy matnda onomastik metaforani yuzaga keltirishda vosita bo‘lib kelgan. Bunda Majnun antroponimi “telbalarcha oshiq”, Layli antroponimi esa “ideal ma‘shuqa” ma‘nosini berishga xoslanib, badiiy mazmun obrazliligi va ekspressivligini ta‘minlashga xizmat qilgan. *U Laylo atagan she‘riyat, Majnuningni nechun tashlading? Shu edimi oshiqqa qismat, Muqaddas ko‘zlarin yoshlading?! (Rauf Parfi. Usmon Nosir)*”<sup>18</sup>

Izohli lug‘atda keltirilganidek, Rauf Parfi “Usmon Nosir” she‘rida pretsedent nomlardan foydalanib onomastik metaforani vujudga keltirgan.

U Laylo atagan She‘riyat,  
Majnuningni nechun tashlading?  
Shu edimi oshiqqa qismat,  
Muqaddas ko‘zlarni yoshlading?!<sup>19</sup>

Ushbu misralar shoirning “Usmon Nosir” she‘ridan olingan bo‘lib, bu baytni o‘qigan kitobxon sevimli shoirimiz Usmon Nosirning “Yana she‘rimga” she‘ridagi quyidagi baytiga ishora borligini anglaydi:

Saharda qon tupursam, mayli.  
Men-Majnunman, she‘rim, sen- Layli!

Rauf Parfi ushbu she‘ri orqali Usmon Nosirning bayti bilan bir qatorda, Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridan biri “Layli va Majnun” dostonining bosh qahramonlari o‘rtasidagi oshiqlikka ham ishora qilganini sezish mumkin.

XX asr she‘riyati barcha vakillari ijodida pretsedent nomlarning onomastik metafora vazifasida qo‘llash holatiga duch kelishimiz mumkin. Masalan, Muhammad Yusufning “Talabalar madhiyasi” deya e‘tirof etiladigan quyidagi she‘rida onomastik metaforadan unumli foydalangan:

Taxtdan tushganda ham otdan tushmay yurgan,

<sup>18</sup> Xudoyberganova D., Andaniyozova D. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. -Toshkent:Turon zamin ziyo-2016. -56-bet.

<sup>19</sup> R. Parfi. Ko‘zlar. Toshkent:G‘afur G‘ulom-1978. -45-bet

Ajdodingiz uy qurmagan- Davlat qurgan  
Yurti uchun yelkasida tog'lar surgan,  
Rustamlari, Farhodlari, ilm istang.

Ushbu misralarda Rustam va Farhod pretsedent nomlari onomastik metafora vazifasida kelgan. Bunda shoir bugungi kun yosh yigitlarini ilm olishga chorlash asnosida, ajdodlari kim bo'lganligi, qanday buyuk davlatlar barpo etganligini eslatadi. Yoshlarni zo'r shijoat bilan yurtga xizmat qiladigan inson bo'lib yetishishlarini xohlab, ularni Rustam, Farhod deya ataydi. Bu tarixiy-afsonaviy shaxlarni qahramonlik, vatanparvarlik ramzi sifatida e'tirof etilganligini, xalqining yukini yengil qilishga qodir afsonaviy shaxs ekanligini yana bir bor eslatadi.

Shu she'rning keyingi baytida shunday misralar bor:

Ko'z ochganda kezib yetti bahri ummon,  
Yetti tilda so'ylashgan biz tili biyron.  
Vatanida Tojmahallar tiklar sulton-  
Boburlari, Behzodlari, ilm istang.

Ushbu misralarda esa Tojmahal, Bobur, Behzod kabi pretsedent nomlar onomastik metaforani hosil qilgan. Ushbu nomlar har bir o'zbekning lisoniy xotirasida tarixiy nomlar sifatida juda mashhurdir. Shoir endi yosh avlodni Bobur, Behzod kabi tarixiy nomlar bilan ataydi. Va ularning "vatanparvarlik", "adolatli va bunyodkor shohlik", "bilimdonlik", "usta hunarmandlik" ramzi sifatida xalqimiz tomonidan e'tirof etilganligini eslatib, yosh avlodni ham shunday sifatlarga ega bo'lishini istaydi. Baytdagi "Tojmahal" pretsedent nomini keltirish asnosida "bunyodkor shoh" sifatiga yanayam urg'u beradi va hatto o'zga yurtda ham dunyoga mashhur bino barpo etgan bizning bobolarimiz ekanligini, biz esa ularning avlodligimizni eslatadi.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, onomastik metaforani yuzaga keltiruvchi nom, albatta, pretsedentlik xususiyatiga ya'ni mashhurlikka ega bo'lishi lozim. Agar nom pretsedentlik xususiyatiga ega bo'lmasa, uni ramziy ma'noda qo'llash yetarli samara bermaydi. Masalan, o'zbek she'riyatida ko'p uchraydigan To'maris pretsedent nomi jasurlik, Hotam pretsedent nomi saxiylik, Jaloliddin Manguberdi pretsedent nomi vatanparvarlik, Alpomish pretsedent nomi qahramonlik, shuningdek, Qur'on pretsedent nomi muqaddaslik ramzi sifatida qo'llangaligiga guvoh bo'lganmiz. Sababi bu nomlar xalqimiz orasida xuddi shunday sifatlari bilan ma'lum va mashhurdir.

O'zbek tilshunosligida onomastik metafora hodisasining tadqiq etilishi, uning ilmiy termin sifatida ishlatilishidan avval bu hodisa rus tilshunosligida o'rganilgan. Rus tilining tarixida oldingi davrdan ma'lum bo'lgan onomastik metafora XVIII asrda alohida o'rganila boshlandi. Evropa madaniyatining ko'plab ko'rinishlari (antik davrdan ma'rifat davriga qadar) Rossiyaga tez kirib borishi ma'lum madaniy hodisalar: janrlar, mifologik tasvirlar, adabiy turlar va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan nomlarning o'ziga xos ko'rinishlarini vujudga keltirdi. Bunday madaniy hayotga ulkan ta'sir o'tkazadigan nomlar til ishlatishning turli sohalariga kiradi: yuqori ritorik janrlardan nutq so'zlashgacha; bu nomlar asosida ko'plab metafora va taqqoslar yaratiladi. Keyinchalik, XIX asrning birinchi uchinchi o'n yilligida, XVIII asrda ishlatilgan nomlardan metaforik foydalanish an'analari vujudga keldi va 30-40-yillarida nihoyat ma'no ishlab chiqarish va ifoda vositasi bir model sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan onomastik metafora shakllandi. XIX asrning birinchi yarmida onomastik metafora shakllanishi, bir tomondan, badiiy so'zning barcha aristokratik madaniyati inqirozi oqibatida "yuqori" ritorik antonomaziyani tanqid qilish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, boshqa tomondan, og'zaki onomastik metafora rolini kuchaytirish bilan belgilanadi.

Demak, onomastik metafora hodisasi ham, bizning tilimizga rus tilidan o'zlashgan, rus tiliga esa Yevropa tillaridan o'tgan va bu hodisa har bir tilning tarixiy madaniyati va onomastik ko'lamini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun onomastik metaforani o'rganishda tarixiy



materiallarga murojaat qilish bizga o'z nomlarimizdan foydalanishning o'ziga xos modelini emas, balki til, jamiyat va madaniyatning eng muhim tarixiy davrlardan birida – zamonaviy adabiy tilining shakllanishi davrida o'zaro ta'sirini kuchaytiradigan mexanizmni ko'rish imkonini beradi.

She'riyatda qo'llangan pretsedent nom onomastik metafora vazifasida kelsa, bunda o'sha nomning atoqli otlik belgisi kamayib, u bildirgan ramziy ma'no munosabati bilan turdosh otga yaqinlashadi. Chunki, lirik matnda bu pretsedent nomning ramziy ma'nosi shoir tomonidan asosiy ma'no tashuvchi, she'rni umumiy mazmuni va salohiyatini ochib beruvchi kalit sifatida ishlatiladi. Masalan: mashhur shoir Rauf Parfining "Abdurauf Fitrat" deb nomlangan she'rida quyidagi misralar bor:

Riyozat qamchisi kabi savaydir  
Alkan yomg'ir buzg'un tanizorimni.  
Ulug' Turkistonni kimlar sevmaydi?!  
Fir'avnlr sevmas mening borimni.<sup>20</sup>

Baytdagi Fir'avn pretsedent nomi universal pretsedent nom bo'lishiga qaramay o'zbek kitobxonlari lisoniy xotirasida ham bu nom haqida atroflicha ma'lumot mavjud. "Qomus.Info" (onlayn ensiklopediya) da Fir'avnomiga shunday ta'rif beriladi:

"Fir'avn- Qadimgi Misr podsholarining nomi. 22 suloladan boshlab (mil.avv. XVI asr) podshoh unvoni. "Fir'avn" so'zi qadimgi misrcha "pero"dan olinib, dastlab "Shoh saroyi" ("Ulut uy") ma'nosini anglatgan. 18 -suloladan boshlab, podshohning o'zi Fir'avn deb atalgan. Mamlakatdagi barcha ekin yerlari Fir'avnlr mulki hisoblangan. Aholidan to'plangan soliqlar, odatda, Fir'avnlarning shaxsiy ehtiyojlari uchun sarflangan. Qadimgi Misr diniy tasavvurlariga ko'ra, Fir'avn- quyosh ma'budi, Gorning o'g'li, uning yerdagi in'ikosi va tabiat ma'budi Osirisning merosxo'ri bo'lgan. Fir'avn hokimiyatining qudratini, ulug'vorligini ko'rsatish uchun ularga bag'ishlab ehromlar qurilgan."<sup>21</sup>

Yuqorida keltirilgan izoh tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, tarixiy bilimga ega bo'lgan kitobxon bu ma'lumotlarni biladi. Shoir Rauf Parfi yuqoridagi misrasida Fir'avn pretsedent nomidan foydalanar ekan, "yovuzlik", "egoistik" ramziy ma'nosini yuzaga chiqarib, she'rni umumiy mazmunini ochib berishda foydalanadi. Shuningdek, shoir Fir'avning yovuz sifatleri, Muso (a.s) bilan bo'lgan ziddiyatlari xususidagi afsonalarni ham eslatgandek bo'ladi va mening yurtim Turkistonni sevmaslik uchun inson yovuz, hissiz bo'lishi kerak (huddi Fir'avn kabi) deydi.

Onomastik metafora terminining tilshunoslikka kirib kelishi va atama sifatida ishlatilishi ham bir muncha tilshunoslarning munozaralariga sabab bo'lgan. Ular orasida rus tilshunosi E.A.Nahimova onimlarning bu tarzda qo'llanishi tilshunoslikda antonomasiya, logoepistema, matn reminisensiyasi kabi terminlar bilan atalganini ta'kidlab, nomlarning ko'chma ma'noda qo'llanishini onomastik metafora termini bilan atash ma'qulligini aytadi.<sup>22</sup>

Ammo, o'zbek tilshunos olimimiz D. Andaniyozova bu fikrga qo'shilmaydi va shunday deydi:

"Bizningcha, ushbu terminlar ostida o'rganiluvchi hodisalarni chegaralab olish kerak. Ya'ni umuman onomastik birliklarning ko'chma ma'noda qo'llanishini antonomasiya (ayrim adabiyotlarda ontonomaziya ham deyilgan) termini ostida o'rganish ma'qul".<sup>23</sup> Tilshunos she'riyatdagi ma'no ko'chish hodisalarini antonomasiya deb atashni taklif qiladi va antonomasiyaga shunday ta'rif beradi:

<sup>20</sup> Rauf Parfi. Tavba. Toshkent:Yozuvchi-2000-y. 31-bet

<sup>21</sup> QOMUS.INFO. Onlayn ensiklopediya.

<sup>22</sup> Нахимова Е.А. Прецедентные онимы в современной российской массовой коммуникации: Теория и методика когнитивно-дискурсивного исследования. – Екатеринбург, 2011.- 81 с.


<sup>23</sup> Andaniyozova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. -Toshkent: Turon zamin ziyo. 2016.-54-bet.

“Antonomasiya- (gr. Antonomasiya- nomni boshqasi bilan almashtirish) muayyan onomastik birlikni turdosh ot sifatida qo‘llash bo‘lib, uning quyidagi turlari bor: 1) adabiy asar qahramonlari yoki tarixda mashhur bo‘lgan ba’zi shaxslarni anglatish uchun onomastik birlikni metaforik ma’noda qo‘llash; 2) muayyan turdosh ot yoki boshqa so‘z turkumini ifodalash maqsadida u bilan aloqador onomastik birlikni qo‘llash.<sup>24</sup>

Bizningcha, ham tilshunos D. Andaniyozovaning fikri asosli. Pretsedent nomlarni konnotativ ma’noda qo‘llanilishini antonomasiya deb atagan ma’qul. Sababi o‘zbek she’riyatida aloqadorlik asosida metanomiya ko‘rinishida ma’no ko‘chish hodisasini ham uchramiz. Masalan: Omon Matjonning bir she’rida shunday misralar bor:

Mana, Navoiyning “Farhod Shirin”i,  
 Parvozga obqochar dilni har so‘zi.  
 Birdan paydo bo‘lar Yosuman kampir,  
 Hamma ishni buzib, daf bo‘lar o‘zi<sup>25</sup>.

Ushbu baytda “Navoiy”, “Farhod va Shirin” va Yosuman kampir pretsedent nomlari shoir tomonidan she’riy misralarida mohirona qo‘llanilgan. Bu yerda Navoiy va Yosuman kampir pretsedent nomlari lingvopoetik jihatdan allyuziv nom sifatida ishlatilgan bo‘lsa, “Farhod va Shirin” pretsedent nomi lingvopoetik jihatdan onomastik metafora sifatida ishlatilgan. Ya’nikim, onomastik birlik aloqadorlik asosida (yozuvchi va uning asari o‘rtasidagi aloqadorlik) ma’no kasb etmoqda va metonomiyani hosil qilmoqda. Demak, o‘zbek she’riyatida nomni konnotativ ma’no tashish holatini ikki xil ko‘rinishini metafora va metanomiya ham uchratishimiz mumkin ekan. O‘zbek she’riyatida bunday misollarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Onomastik metafora termini esa konnotativ ma’noda qo‘llangan pretsedent nomni chegaralab qo‘ygandek. Shu sababli biz pretsedent nomlarning lingvopoetik vazifasini quyidagicha tasniflashimiz kerak:



Bir narsani ta’kidlashimiz lozimki, yuqoridagi misollar va nazariy ma’lumotlardan kelib chiqsak, faqat pretsedent nomlarga onomastik metafora yoki onomastik metanomiya uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Sababi, konnotativ ma’noda qo‘llangan so‘z yoki nom kitobxon uchun yaxshi tanish bo‘lishi, mashhurlikka erishgan bo‘lishi zarur. Shundagina har qanday o‘quvchi onomastik metafora qo‘llangan she’rlarni o‘qish jarayonida ularni yaxshiroq anglaydi va ular ifodalayotgan ramziy ma’noni ham oson tushunadi.

Onomastik metafora yuzasidan tadqiqot olib borgan tilshunos olimlar, onomastik metaforada leksik qurshovning o‘rni muhimligini ta’kidlaydilar va ularni yuzaga keltiruvchi ayrim vositalar ham borligini qayd etadilar. Rus tilshunosi Voronsov pretsedent nomlarning ko‘plik shaklida qo‘llanishi

<sup>24</sup> Andaniyozova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. -Toshkent: Turon zamin ziyo. 2016.-57-bet.

<sup>25</sup> Omon Matjon. Iymon yog‘dusi(Saylanma). -Toshkent: G‘afur G‘ulom. 1991.-154-bet.

(bo'lajak Lomonosovlar), ko'rsatish olmoshi (sening Julettang), muayyan atribudlar onomastik metaforaning yuzaga kelishida vosita rolini bajarishini qayd etadi.<sup>26</sup>

Bizningcha, ham pretsedent nomga qo'shilgan ko'plik shakli onomastik metaforani yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biridir. O'zbek shoirlarining she'rlarni tahlil qilish jarayonida ham aynan shu usulda hosil qilingan onomastik metaforaga ko'proq uchratdik. Bilamizki, shaxs nomlariga qo'shilgan ko'plik qo'shimchasi shaxs va uning to'dasi ma'nosini bildirib, atoqli otni turdosh otga aylantiradi va ramziy ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi.

Rus tilshunosi Voronsov qayd etgan onomastik metaforani yuzaga keltiruvchi ikkinchi usul "olmosh + pretsedent nom" ni ham o'zbek she'riyati vakillarining ijod mahsullari orasida uchratishimiz mumkin. Bu o'rinda aytish joizki, har qanday "olmosh + pretsedent nom" ko'rinishidagi onomastik metafora vazifasida kela olmasligi mumkin. Buni quyidagi misollarda ko'ramiz:

1. Sen Mashrabsan, xalqqa tumor,  
Balxda dorga osilgan,  
(Sen) Navoiysan, shoh yonida  
Faqirni duo qilgan. (M.Yusuf. Vatanim)
2. (Sening) Boyqarong qotilmish, Temuring xunxo'r,  
(Sening) Manguberding zobit, xor, manglayi sho'r,  
Ne xarob millatsan, bormi biron zo'r,  
Ustunlar tiklanmay qulashga tushdi?!<sup>27</sup>

Misollarning birinchisida Mashrab, Navoiy onomastik metaforani yuzaga keltirgan, xalqning sevimli shoiri Mashrab nohaqlik bilan dorga osilganligini, tarixda bosqinchilar tomonidan vatanimizning boshiga nohaq kulfatlar yog'dirilganligiga o'xshatilgan bo'lsa, Navoiydek buyuk shaxs, davlat arbobi shohga eng yaqin inson bo'lib, o'z manfaatini emas xalqimizning faravon yashashi uchun harakat qilganligi, bitta so'z bilan aytganda jo'mardligi, xalqimizning ham insonparvarligiga o'xshatilgan. Ikkinchi she'rda esa Boyqaro, Temur, Manguberdi nomlari bevosita tarixiy shaxslarga ishora qilib, pretsedent nom o'z ma'nosida qo'llangan.

Demak, pretsedent nomlarning onomastik metafora vazifasida kelishi shoirning she'rga yuklamoqchi bo'lgan badiiy niyatini yoritishga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biridir. Chunki, onomastik metaforada pretsedent nom ko'chma ma'noda qo'llanilib muayyan ramziy ma'no anglatadi va etalon asosidagi so'z ma'nosida qo'llanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Andaniyozova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. -Toshkent: Turon zamin ziyo. 2016.
- Omon Matjon. Iymon yog'dusi(Saylanma). -Toshkent: G'afur G'ulom. 1991.
- R. Parfi. Ko'zlar. Toshkent:G'afur G'ulom-1978.
- Rahmon Sh. Abadiyat oralab. Toshkent: Movorounnahr- 2012.
- Xudoyberganova D., Andaniyozova D. O 'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati. -Toshkent:Turon zamin ziyo-2016.

<sup>26</sup> Воронсов Р.И. Ономастическая метафора в русском литературном языке: Автореф. Дисс. ...канд. филол. наук.-Санкт-Петербург. 2012.-Б.9.

<sup>27</sup> Matjon O. Turg'unlik yillari/Odamning soyasi quyoshga tushdi (Saylanma). -Toshkent: Yozuvchi. 1991.-18-b.

Нахимова Е.А. Прецедентные онимы в современной российской массовой коммуникации: Теория и методика когнитивно-дискурсивного исследования. – Екатеринбург, 2011.

Воронсов Р.И. Ономастическая метафора в русском литературном языке: Автореф. Дисс. ...канд. филол. наук.-Санкт-Петербург. 2012.